

AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Azimova Odinaxon Abduqodir qizi
Namangan davlat unversiteti
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish zarurligi, har bir pedagoglarimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dasturini bilishlarini va undan samarali foydalanish, o'zlari o'tayotgan dars mashg'ulotlarida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishimiz lozimligi, axborot saralashni diniy manbalarda bayon qilingani ko'rsatib o'tilgan .

Kalit so'zlar: Texnologiya, axborot texnologiyalari, axborot madaniyati, kitobxonlik madaniyati, bilim , ko'nikma, malaka, pedagogik mahorat, mutolaa madaniyati, axborot iste'moli madaniyati

Abstract: In this article, it is necessary to form and develop the culture of working with information in future pedagogues, to make each of our pedagogues aware of the modern information and communication technology program and to use it effectively, to use it in the lessons they are conducting, it is indicated that the sorting of information is described in religious sources.

Keywords: Technology, information technologies, information culture, reading culture, knowledge, skills, competence, pedagogical skills, reading culture, information consumption culture.

Аннотация: В данной статье необходимо формировать и развивать культуру работы с информацией у будущих педагогов, знакомить каждого нашего педагога с программой современных информационно-коммуникационных технологий и эффективно ее использовать, применять на уроках ведут, указано, что сортировка информации описана в религиозных источниках.

Ключевые слова: Технология, информационные технологии, информационная культура, культура чтения, знания, умения, компетентность, педагогическое мастерство, культура чтения, культура потребления информации.

Ongli inson borki, hayotining har lahzasida yo axborot oladi, yo uni idrok etadi va yoki uzatadi. Ushbu uch jarayonning to'rtinchisi — keraksiz axborotdan xalos bo'lish. Biz axborot erkinligi haqida juda ko'p gapirdik, endi esa keraksiz axborotdan

qutulish muammosi yo‘limizda ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Afsuski, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda mulkingizga aylangan axborot yig‘indisi xonadoningizda hosil bo‘lgan chiqindi emaski, undan osongina voz kechsangiz. Axborot madaniyati mazkur to‘rt bosqichli jarayon ichida eson-omon yashash hamda faoliyat yuritishga zamin yaratadi, doimiy yordamchiga aylanadi.

Axborot madaniyati - bu yangi aloqa turi bo‘lib, bu individual ma'lumotlarga ega bo‘lgan ma'lumotni bo'shatish imkoniyatini beradi; Global mahalliy darajadagi, barcha darajadagi ma'lumotlardan foydalanish erkinligi milliy ilmlar kabi barbod bo'lishi mumkin; Odanni muntazam ma'lumot va intellektual ishlardan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan yangi tafakkur turi, uni aniqlash va o'zini o'zi o'rganish masalasi aniqlangan.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi vaqt va masofani qisqartirib, jahon sivilizatsiyasi bilimlariga keng yo‘l ochib bermoqda. Bir vaqtlar fan, madaniyat, ta‘lim va biznes sohasi uchun ma‘lum hududdagi kutubxonalaridagi resurslardan foydalanilgan bo‘lsa, bugungi kunda ular foydalanishi mumkin bo‘lgan resurslar hajmiga Internet tarmog‘idagi barcha resurslarni ham kiritish mumkin bo‘ladi. Jamiyatda paydo bo‘layotgan axborot resurslari hajmining jadal ortib borishi axborot bo‘ronini vujudga keltirmoqda. Bu resurslardagi ma‘lumotlarning barchasi ham ishonchli, aniq faktlarga asoslangan, jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan axborotlar degan fikrdan yiroqmiz.

Jamiyatda hosil bo‘layotgan axborot bo‘ronidan jamiyat a‘zolarini, ayniqsa, jamiyatning kelajagi bo‘lgan yoshlarni himoya qilishda, ularda axborot madaniyatini shakllantirish judayam dolzarb muammo hisoblanadi.

1. O‘quvchilarda axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish

Bugun biz tez suratlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi jurnalistlar bu davrni turlicha ta‘riflab, har xil nomlar bilan atamoqdalar. Kimdir yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana biron yalpi axborot davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma‘lum ma‘noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqalar va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv-bu avvalo hayot

sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin.

Ayniqsa, bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkor rivojlanayotgan bir paytda, ilgorigidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q deb beparvo qarab bo'lmaydi. Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol. Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radiotelevideniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini to'g'ri axborot bilan boyitish, ularda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biridir. Bu o'rinda badiiy adabiyot, kitob mutolaasi katta yordam beradi.

Inson qancha ko'p kitob o'qisa, uning fikr doirasi tiniqlashib, silliqdashib boradi. O'qish madaniyatini shakllantirish asosida "kitobxonlik madaniyati" tarkib topadi. Ana shu sababli kitobxonlik madaniyati fan darajasiga ko'tarilishi, nafaqat kitob mutolaasini targ'ib etish, balki muntazam kitob o'qishga odatlanish, o'qish uchun kitobni to'g'ri tanlay olish, voqelik bilan dialogga kirishi asosida o'z-o'zini anglashga erishish nihoyatda muhimdir. O'qish madaniyati keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda "kitobxonlik madaniyati", "mutolaa madaniyati", "axborot madaniyati", "axborot iste'moli madaniyati" kabi atamalar keng qo'llanmoqda.

Hozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri matbuot va axborot vositalarining mislsiz rivojlanib, insonlar hayotida katta o'rin egallaganidir. Hozirda matbuot va axborot vositalari turli-tuman va xilma-xil bo'lib ketdi. Radio, televizor, kundalik, haftalik, oylik va mavsumiy gazeta-jurnallar, kompyuter va qo'l telefonlari, internet va uning turlari hammasi matbuot va axborot vositalaridir. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, matbuot va axborot vositalari bugungi kunda xohlagan tarafi bilan xohlagan narsasini kesadigan ikki tig'li xanjarga o'xshab qoldi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar axborot vositalari sohasida xizmat qiladigan shaxslar jamiyat va uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchilardir. Shuning uchun ularning barchasi yaxshilik tarafdorlari va yomonlik dushmani bo'lishlari lozim. Ular odamlarga yaxshilikni ravo ko'rib, yomonlikni ravo ko'rmasliklari kerak.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Sizdan kim bir munkarni ko’rsa o’shani qo’li bilan o’zgartirsin, agar qudrati yetmasa tili bilan, agar bunga ham qudrati yetmasa dili bilan, ammo bunisi iymonning eng zaifidir”-dedilar.

Munkar ish deganda din shariat tomonidan inkor qilingan yomonlikni tushuniladi. Chin mo’min inson o’z jamiyatida bo’layotgan munkar ishni ko’rib bilib turib befarq qola olmaydi. Munkar ishni tili bilan qaytarish matbuot axborot vositalarida xizmat qiladigan shaxslarning ham ishidir, ular tili bilan gapirib, qo’li bilan yozib munkar ishning yomonligini bayon etadi, uni qilmaslikka chaqiradi. Bu ish har bir imkoni bor mo’minga vojibdir. Bugungi kunimizda axborot vositalari o’ta ta’sirli tashviqot quroli o’laroq, keng jamoatchilikni kattayu kichikni yaxshilikka, xalqni birdamlikka chaqirish vositasi bo’lishi kerak. Shuningdek, ovoz va surat yozuv va ko’rsatuv hamda boshqa vositalar orqali ilm-ma’rifat, odob-axloq tarqatish omili bo’lishi lozim xuddi shu o’rinda yaxshilikka chaqiruvchi matbuot va axborot vositalari xodimlarining ishlari juda savobli ekanining dalili sifatida bir hadisi sharifni keltirishga ijozat bergaysiz.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim bir yaxshilikka dalolat qilsa unga qiluvchining ajri mislicha ajr bor”- dedilar.

Yaxshilik qilish juda savobli ish. Shu bilan birga ana shunday yaxshilikka dalolat qilish, ishora qilish unga yo’llab qo’yish ham nihoyatda yaxshi ishdir. O’sha yaxshilikni qilgan odam qancha savob olsa, mazkur yaxshilikka dalolat qilgan odam ham o’sha miqdorcha ajr, savob oladi. Albatta har bir narsaning ma’lum me’yori bor, jumladan matbuot va axborot vositalardan foydalanishning ham me’yori bo’lishi kerak. Ulardan o’ziga, oilasiga, xalqiga, vataniga foydali bo’ladigan narsalar haqida ma’lumot olishi mumkin. Hozirda axborot vositalari taqdim qilayotgan narsalarning foydalisi ham, zararlisi ham bor. Musulmon kishi ularning foydalisidan me’yorida foydalanishga va zararisidan butunlay chetlanishiga odatlanishi, oila a’zolari va farzandlarini ham shunga o’rgatishi kerak. Bu ishda esa ta’lim va tarbiya alohida muhim o’rin tutadi. Alloh taolo barchamizga matbuot va axborot vositalaridan ezgulik yo’lida manfaat olishimizni va ularning zararidan omonda bo’lishimizni nasib aylasin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda yoshlarimizning axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va texnologiyasini mukammal darajada o’zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mamlakatimizda Internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Zero, jamiyatimiz hayotining turli sohalari to’grisida axborot beruvchi ob’ektiv, jozibador ma’lumotlarni Internet sahifalaridan keng o’rin egallashi, O’zbekiston global axborot makonidagi o’rining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham, eng avvalo, yoshlar bugungi kunda yurtimizda barqaror bo’lgan tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetib, bu ne’matni ko’z qorachig’idek

asrash maqsadida, tinmay o'qish va izlanishda bo'lishlari kerak. Yoshlardan doimo ogohlik va ziyraklik talab etiladi. Demak, bugungi kunda eng muhim vazifa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қамбаров М. Талабаларни мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш: Монография Наманган. – Аржуманд медиа, 2021
2. Н.Муратова, Э. Грizzle, Д. Мирзахмедова Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги: Тошкент: Baktria press, 2019. - 112 б
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014
4. Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятия Стандарты и мониторинг в образовании. –2004. – № 2. – С.48-51.
5. Kubey, R. (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. Journal of Communication (Winter), pp.58-69.
6. Мигранова Е.А., Позилова Ш.Х. Касбий педагогик фаолиятга кириш. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – 200 б.
7. Универсальная журналистика: опыт проектного обучения. Учебное пособие под общей редакцией Л. Шестерёнкиной. — Челябинск, 2018.
8. Muratova N. New media audience: psychological aspects and transformation of the social role. Media, Human, Society in Asia. Korea & Uzbekistan. Seoul, South Korea, April 21–26, 2019. — P. 107–113
9. Mixailovskiy v.n. Dunyoning ilmiy rasmini shakllantirish va axborotlashtirish. Sankt-Peterburg, 1994, p. 54, 56.
10. Medvedeva E. A ma'lumot madaniyati asoslari (universitetlar uchun kurs dasturi) // Sotis, 1994, № 11, p. 59.
11. Sovuq ma Aql psixologiyasi. Tomsk-Moskva, 1997 yil
12. Ershov A. P. Axborotlashtirish: dan kompyuter savodxonligi Talabalar jamiyatning axborot madaniyatiga // kommunist, 1988 yil 2-son, p. 82 - 92. Қаҳрамон Шамсиддинов Бухоро туман “Хитоён” жомеъ масжиди имом хатиби.